

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUVAXOBOV G‘IYOSIDDIN G‘AYRATJON O‘G‘LI

**YANGI AVLOD OMONIMLAR O‘QUV LUG‘ATI MOBIL ILOVASINI
YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

UO‘K: 811.512.133.93’374

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Abduvaxobov G‘iyosiddin G‘ayratjon o‘g‘li

Yangi avlod omonimlar o‘quv lug‘ati mobil ilovasini yaratishning
lingvistik asoslari..... 3

Abduvaxobov Giyosiddin Gayratjon ugli

The linguistic basis of creating a new generation learning dictionary mobile
app of homonyms..... 27

Абдувахобов Гиёсиддин Гайратжон угли

Лингвистические основы создания мобильного приложения учебного
словаря омонимов нового поколения..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUVAXOBOV G‘IYOSIDDIN G‘AYRATJON O‘G‘LI

**YANGI AVLOD OMONIMLAR O‘QUV LUG‘ATI MOBIL ILOVASINI
YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1.PhD/Fil1898 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasining www.fdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Xoshimov G'anijon Mirzaaxmedovich
filologiya fanlari doktori, professor

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "30" 05 soat 900 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel: (873) 244-57-82; e-mail:info@fdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 267 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "16" 05 da tarqatildi.

(2023-yil "16" 05 dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n, professor.

A.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida kompyuter leksikografiyasiga oid tadqiqotlarning tobora rivojlanishi, yangi texnologiyalar va metodlarni taqdim qilish sohadagi zamonaviy yo‘nalishlarda ham ijobiy natijalarga erishishda muhim omil vazifasini o‘taydi. Leksikografik tadqiqotlar bilimlarni qayta ishlash mahsuli sifatida tabiiy tilni tadqiq qilish va kompyuter lingvistikasida muayyan darajada amaliy masalalarni hal etish uchun muhim qadam bo‘ldi.

Dunyo tilshunosligida kompyuter texnologiyalari asosida mashina formatidagi lug‘atlarning yaratilishi lingvistik baza sifatida til ta‘limi, amaliy tilshunoslik hamda tarjima nazariyasi va amaliyotida muhim burilishlar hosil qilishga xizmat qildi. Ayniqsa, kompyuter lingvistikasi negizida korpusga asoslangan lug‘atchilikning taraqqiy etishi web dasturlarda onlayn, mobil ilovalar hamda zamonaviy elektron qurilmalarda ishlash uchun mo‘ljallangan turli tipdagi lug‘atlarning platformasi yaratilishiga zamin hozirladi.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish borasida yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ona tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini o‘stirishga xizmat qiluvchi amaliy tadqiqotlarga keng yo‘l ochdi. O‘zbek tilshunosligida o‘quv lug‘atlari, ularning o‘ziga xos xususiyati, ijtimoiy, psixologik, leksikografik, ta‘limiy ahamiyati, mavjud lug‘atlarning elektron, xususan, mobil ilovalarini yaratishning lingvistik asoslari masalalari to‘liq o‘rganilmagan. Binobarin, “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini tubdan oshirish, yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash”¹ maqsadida o‘zbek tili o‘quv leksikografiyasi tarmog‘ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratishni kun tartibiga qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari tўg‘risida”ги Фармони. www.xabar.uz (murojaat sanasi: 12.08.2022)

Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 20-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida o‘quv lug‘atchiligi, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlaridan biri hisoblangan omonimlar talqini bilan bog‘liq bahslar, ushbu sermahsul til hodisasiga bo‘lgan yondashuvlarni yangi bosqichga ko‘tarish hamda tadqiqot sohasini kengaytirish borasida izlanishlar olib borilgan. Mobil lug‘atlarning til ta‘limida turgan o‘rni va undan instrument sifatida foydalanish masalalari² A.Kukulska-Xulme, L.Shield, M.Sharples, M.Tayyebinik, M.Puteh, G.Chinneri, J.Traxler, A.Trifanova, M.Hussey, E.Klopfer, J.Kronj, K.Stil, P.Sornton kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Rus tilshunosligida kompyuter leksikografiyasi va elektron lug‘atchilikka doir izlanishlar bir qator olimlar ishlarida o‘z ifodasini topgan³.

² Kukulska-Hulme A., Shield L. An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. ReCALL, 2008. – P. 271; Sharples M. Big issues in mobile learning. Report of a workshop by the Kaleidoscope Network of Excellence Mobile Learning Initiative; 2006. – P. 115; Tayyebinik M., Puteh M. Mobile learning to support teaching English as a second language. Journal of Education and Practice, 2012. – P. 56-63; Chinnery G.M. Emerging technologies, going to the MALL: Mobile Assisted Language Learning and Technology, 2006. – P. 9-16; Traxler J. Mobile Learning: It’s here, but what is it? Interactions, 2005. – P. 78-92; Trifanova A., Ronchetti M. Where is mobile learning going? Proceedings of the E-learn Conference, 2003. – P. 1795-1801; El-Hussein M.O.M., Cronje J.C. Defining mobile learning in the higher education landscape. Educational Technology and Society, 2010. – P. 12-21; Steel C. Fitting learning into life: Language students’ perspectives on benefits of using mobile apps. Proceedings of ascilite 2012. – P. 35-41; Thornton P., Houser C. Using mobile phones in English education in Japan. Journal of Computer Assisted Learning, 2005. – P. 217-228.

³ Рублева О.С. Слово в электронном словаре (с позиций пользователя электронными ресурсами) Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2010; Шакер И.Т. Лексические производные омонимы – существительные и их отражение в словарях. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2013; Ахмедова М.Н. Лексико-семантические особенности омонимов персидского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010; Алексеева Н.А. Совершенствование орфографической компетенции Иностранцев студентов-нефилологов на основе Учебного словаря-справочника: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008; Петрушова О.Л. Учебные словари в межкультурной коммуникации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ярославль, 2009; Тимофеева Н.М. Проектирование учебных словарей по педагогическим дисциплинам: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Смоленск, 2004; Старикова И.Л. Основы построения учебных словарей сопроводительного типа: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2008; Лебедева С.В. Учебные словари различных типов в культурологическом: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Иваново, 2005; Fellbaum Cristiane (Ed.), WordNet: An Electronic Lexical Database. The MIT

O‘zbek leksikografiyasi o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, uning ilk namunasi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. Uzoq davriy bosqichlardan bugungi kunga qadar qomusiy va lingvistik lug‘atlar⁴ yaratilib, takomillashtirildi hamda qator tadqiqot⁵ ishlari maydonga keldi.

O‘zbek tilshunosligida XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida kompyuter lingvistikasi, matnlarni kompyuter leksikografiyasi bilan bog‘liq holda tahlil etish borasida A.Po‘latov, S.Muhammedov, N.Ayimbetov, S.Muhamedova, G.Jumanazarova, A.Babanarov, D.O‘rinboyeva, A.Norov va boshqalar tomonidan turli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Press, Cambridge, London, England, 1998; Estienne, R. Thesaurus linguae latinae / R. Estienne. Paris, 1531; Estienne, R. Dictionnaire François-latin contenant les motz etmanieres de parler François, tournez en Latin /R. Estienne. Paris, 1539.

⁴Mengliyev V., Xolyorov O‘. Ona tili Qomus (maktab o‘quvchilari uchun). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009; Kўnғurov P., Tихонов A. Ўзбек тилининг чаппа луғати, Самарқанд: 1968; Рустамов А., Каримов Қ., Умаров З. Форсча-ўзбекча ўқув луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975; Асомиддинова М., Бегматов Э. ва бошқалар Ўзбек адабий талаффузи луғати. – Тошкент: Фан, 1984; Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974; Маруфов А. Паронимлар луғати, Тошкент: Ўқитувчи, 1974; Ғуломов А., Тихонов А., Кўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977; Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984; Муҳаммедов С. Ўзбек тилининг алфавитли-частотали луғати. – Тошкент: Фан, 1982; Ножийев А., Nurmonov A. va boshqalar Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001; Сулаймонова Н., Абзалова М. Ўзбек тилидаги арабий сўзлар имлоси. – Тошкент: Фан ва технология, 2008; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (3-жилдли). – Тошкент: Университет, 2000-2009; Махмудов Н. Худоберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013; Маматов Н. Ўзбек тилидаги ҳозирги кўшма сўзлар луғати. – Тошкент: Фан ва технология, 2019; Vafoiy A., Avezmetov Sh. O‘zbek tiliga o‘zlashgan forcha so‘zlar. – Tehron-Toshkent. Al-Hudo, Mavarounnahr, 2005; Содиков Қ. Илк ва ўрта асрлар туркий матнлари номларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Шарқшунослик, 2001; Volkovskaya D., Peremqulova A., Hakimov M. Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha kompyuter ilmi bo‘yicha o‘quv lug‘ati. – Тошкент: O‘zbekiston milliy universiteti, 2004; Абдуллаева М. ва бошқалар Фалсафа қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Шарқ, 2004; Рўзимбоев С., Рўзметов Х., Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч: 2007;

⁵Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017; Худжаева Р.М. Инглиз ва ўзбек тилларидаги генетик боғланмаган лексик омонимларнинг самарадорлиги ва уларнинг лексикографик талқини: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Ғофурова С. Салоҳиддин Тошкандий «Луғоти салос» асарининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Норматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Бердимуратов Д. Феъл фразеологик бирликларнинг лексикографик талқини тамойиллари (немис тили изоҳли луғати мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Бахридинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020; Розикова Г. «Девону луғотит турк» асаридаги от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Убайдуллаев А. “Луғати туркий”нинг лексикографик тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2021; Нигматова Л. Мустақиллик даври ўзбек луғатчилигида тил ва маданият муштараклиги муаммоси: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Бухоро. 2021; Султонова Ш. Грамматик терминлар электрон луғатини яратишнинг лингвистик асослари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Мирханова Г. Ўзбек тилининг синоним сўзлар ўқув луғатини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022; Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022; Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022; Шарипов С. Замонавий икки тилли луғатларнинг ривожланиш ва тузилиш муаммолари (рус-ўзбек ва ўзбек-рус луғатлари материаллари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореф. дисс. – Бухоро, 2023.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi hamda kompyuter leksikografiyasiga oid ishlar amalga oshirildi⁶, xususan, N.Abduraxmonova, Sh.Xamroyeva, Sh.Gulyamova, A.Eshmo‘minov, M.Abjalova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘zbek tilida yangi avlod lug‘atlarini yaratishning lingvistik xususiyatlari monografik aspektida o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Zamonaviy tilshunoslik muammolari” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili omonimlar o‘quv lug‘atining tarkibiy qismi sifatida leksik, affiksial va frazeologik til birliklarining omonimik paradigmasini shakllantirish, kompyuter leksikografiyasi nuqtayi nazaridan yangi avlod o‘quv lug‘atlarini yaratishning nazariy asoslariga tayanib, ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etgan holda, o‘zbek tili omonimlari mobil lug‘atini shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

o‘zbek tili o‘quv lug‘atlarini yaratishning korpusga asoslangan nazariy metodologiyasini tahlil qilish;

yangi avlod o‘quv lug‘atlarini yaratishda kompyuter leksikografik tadqiqotlarning konseptologik jihatlarini amaliyotga tatbiq etish;

o‘zbek tili omonimlar o‘quv lug‘ati mobil ilovasining lug‘at strukturasi va kontentini yaratish;

o‘quv lug‘atlari misolida elektron lug‘atlarga xos funksional imkoniyatlarni tadqiq etish orqali uning nazariy asoslarini yoritib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining elektron korpusi” dagi lingvistik resurslar olingan.

Tadqiqotning predmeti o‘zbek tili omonimlari o‘quv lug‘ati mobil ilovasini yaratish orqali yangi avlod o‘quv lug‘atlarining lingvistik va lingvodidaktik asoslarini tadqiq etishdan iborat.

⁶ Абдурахмонова Н. Ўзбек тили электрон корпусининг компьютер моделлари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021; Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпусини яратишнинг назарий ва амалий масалалари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021; Abjalova M.A. O‘zbek tili ontologiyasini yaratish tamoyillari: Filol. fanlari doktori (DSc) ...diss. avtoref. – Farg‘ona. 2022; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона. 2022; A.Agostini, T.Usmanov, U.Khamdamov, N.Abdurakhmonova, M.Mamasaidov. 2021. UZWORDNET: A Lexical-Semantic Database for the Uzbek Language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference, – P. 8–19, University of South Africa (UNISA). Global Wordnet Association; Mengliev, D; Barakhnin, V; Abdurakhmonova, N. Development of Intellectual Web System for Morph Analyzing of Uzbek Words. Appl. Sci. 2021, 11, 9117. <https://doi.org/10.3390/app11199117>; Абдурахмонова Н., Ҳайдаров М. Ўзбек тилида WORDNET яратиш масалаларига доир // “O‘zbekistonda hozirgi tillar” elektron jurnali № 4 (27) / 2019; Абдурахмонова Н. Ўзбек тили электрон корпусининг компьютер моделлари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент. 2021; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона. 2022; Мамедова М.А. Умумталим мактаблари ўқувчиларини инглиз тили омонимларига ўқитишдаги компьютер технологиялари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017;

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, korpusga asoslangan tahlil, struktur-semantik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘quv lug‘atlaridan foydalanishda mobil ta’lim nazariyasining multimediya, rasm, audio va shu kabi metodologik imkoniyatlari asosida yaratilgan omonimlar o‘quv lug‘ati ma’lumotlar bazasiga omograf, omoforma va omofon birliklari kiritilib, ularning lingvistik imkoniyatlari ochib berilgan;

zamonaviy elektron o‘quv lug‘atlarining asosiy vazifalari ma’lum bir sohaga oid so‘z va atamalarni to‘plash, ulardan foydalanish me’yorlarini belgilash, kommunikativ funksiyalardan iborat ekanligi aniqlangan;

elektron o‘quv lug‘atning leksik vositalarini mavzu yo‘nalishiga muvofiq tanlash, terminologik tizimda mavjud bo‘lgan mantiqiy va konseptual munosabatlarni hisobga olgan holda omonimlar lug‘atini tuzish va tizimlashtirish, kontekstli manba matn qismini kiritish uchun ensiklopedik qism yaratish, ochiqlik, ya’ni o‘quv materialini o‘zgartirish va to‘ldirish imkoniyati kabi xususiyatlari bilan bog‘liqligi dalillangan;

omonimlar o‘quv lug‘ati mobil ilovasi uchun grammatik, leksik, matniy bilimlar bazalari asosida lingvistik ta’minot yaratilib, uni doimiy ravishda yangilab borish, yangi kirib kelayotgan omonim birliklarni kiritish imkoniyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ushbu tadqiqot ishi “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va uning mobil ilovasini yaratish” (2021-2023) nomli loyiha doirasida amalga oshirilgan tadqiqotda o‘z ifodasini topgan. Natijada <http://tilshunos.com/> saytida omonimlar o‘quv lug‘ati va uning interaktiv topshiriqlaridan iborat lingvistik bazasi shakllantirilgan;

“Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish – omonimlar lug‘ati” (DGU 2022 2572) va “Omonimlar lug‘ati” (BGU 2022 0055) uchun mualliflik guvohnomasi olingan⁷.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mobil lug‘atlarning lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, birlamchi ilmiy-uslubiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan o‘z isbotini topadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ishning nazariy metodologik asoslari hamda erishilgan amaliy natijalar asosida “O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati” yaratilgani, ushbu o‘quv lug‘atning kontenti korpusga asoslangan tahlil asosida shakllantirilib, mobil lug‘atga kiritilgani, kompyuter leksikografiyasiga oid metodologik ishlanmani yaratishda ilmiy tadqiqotlarga, xususan, zamonaviy elektron lug‘atlar

⁷ Назирова Э., Абдурахмонова Н., Абдувахобов Ф. Янги авлод ўқув луғатлари ва уларнинг мобиль иловаларини яратиш – омонимлар луғати DGU 2022 2572, 15.06.2022; Назирова Э., Абдурахмонова Н., Абдувахобов Ф., Азимов С. Омонимлар луғати. BGU 2022 005511.03.2022.

yaratish tamoyillariga tayanilgani, kompyuter lingvistikasi hamda kompyuter leksikografiyasi, korpus lingvistikasi kabi fanlarda erishilgan nazariy xulosalardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kompyuter lingvistikasi, tilshunoslikning “Leksikologiya”, “Leksikografiya” va “Semasiologiya” bo‘limlari, “Amaliy tilshunoslik” fanlaridan darslik va qo‘llanmalar, mobil hamda assotsiativ lug‘atlar yaratish, lingvodidaktika, pedagogik leksikografiyani fan sifatida o‘qitishning metodik ta‘minotini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Yangi avlod omonimlar o‘quv lug‘ati mobil ilovasini yaratishning lingvistik asoslaridan:

elektron o‘quv lug‘atning leksik vositalarini mavzu yo‘nalishiga muvofiq tanlash, terminologik tizimda mavjud bo‘lgan mantiqiy va konseptual munosabatlarni hisobga olgan holda omonimlar lug‘atini tuzish va tizimlashtirish, kontekstli manba matn qismini kiritish uchun ensiklopedik qism yaratish, ochiqlik, ya‘ni o‘quv materialini o‘zgartirish va to‘ldirish imkoniyati kabi xususiyatlari bilan bog‘liqligi xususidagi xulosalardan 2018-2021-yillarga mo‘ljallangan Erasmus + xalqaro loyihasi doirasida “Class – Markaziy Osiyo universitetlarida Kompyuter lingvistikasi magistratura dasturini rivojlantirish” nomli xalqaro amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 16-noyabrdagi 04/1-3158-son ma‘lumotnomasi). Natijada kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini rivojlantirish, yangi avlod o‘quv lug‘atlari mohiyatini magistrantlarga yetkazish, omonimlarning ma‘lumotlar bazasini yaratish orqali leksikografik tadqiqotlarning nazariy asoslarini dalillash, lug‘at yaratish mezonlarini tasniflashning ilmiy-amaliy jihatlari boyitilgan;

o‘quv lug‘atlaridan foydalanishda mobil ta‘lim nazariyasining multimediya, rasm, audio va shu kabi metodologik imkoniyatlar asosida yaratilgan omonimlar o‘quv lug‘ati ma‘lumotlar bazasiga omograf, omoforma va omofon birliklari kiritilib, ularning lingvistik imkoniyatlaridan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2022-yilda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” mavzusidagi innovatsion ilmiy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 21-dekabrdagi 01/4-3528-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘quv lug‘atlari mobil ilovasini yaratish orqali ta‘lim jarayonida mobil lug‘atning interaktivligini ta‘minlashga doir fikrlar ilmiy asoslangan;

tadqiqotning omonimlar o‘quv lug‘ati mobil ilovasi uchun grammatik, leksik, matniy bilimlar bazalari asosidagi lingvistik ta‘minot yaratilgan, uni doimiy ravishda yangilab borish, yangi kirib kelayotgan omonim birliklarni kiritish imkoniyatiga oid materiallaridan 2021-2022-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Millat va ma‘naviyat” eshittirishlarining ssenariysini

yoʻzishda foydalanilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 27-dekabrda 04-36-2142-son maʼlumotnomasi). Natijada radiodasturlarda berilgan mazkur ilmiy natijalar tinglovchilarning muloqot madaniyati, badiiy tafakkuri, falsafiy qarashlari borasidagi bilimlari oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.

Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida maʼruza qilingan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan, shuningdek, muallifning quyidagi <https://scholar.google.com/citations?user=UTx-aZsAAAAJ&hl=ru> google schooler platformasida ilmiy ishlari muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi.

Dissertatsiya boʻyicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan boʻlib, shundan 1 ta oʻquv lugʻat va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (shu jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, ishning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot ishining maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning *“Elektron lug‘atlar kompyuter leksikografiyasining o‘rganish obykti sifatida”* deb nomlangan birinchi bobida kompyuter leksikografiyasida lingvistik resurslarning o‘rganilishi, kitobiy va elektron lug‘atlarning umumiy va farqli jihatlari, lingvistik lug‘atlarning zamonaviy turlari, lug‘at kompozitsiyasi va kontentini yaratishga doir jahon va o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik tamoyillar asosida bajarilgan ishlar xususida ma‘lumot berilgan va uning nazariy asoslari tadqiq etilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining *“O‘quv lug‘atchiligiga oid tadqiqotlar sharhi”* deb nomlangan birinchi faslida o‘quv lug‘atlarining jahon, rus va o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni haqidagi fikrlar yoritilgan.

Lug‘atchilikning tadrijiy taraqqiyoti haqida gap ketar ekan, ko‘p o‘rinlarda tarjima lug‘ati – lingvistik lug‘at – qomusiy lug‘at – ta‘limiy (o‘quv) lug‘at – elektron lug‘atlar ketma-ketligi keltiriladi. Jahon tilshunosligida lug‘atchilik tarixi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar lug‘atning dastlabki ko‘rinishlari sifatida ta‘limiy maqsadga yo‘naltirilgan ilk lug‘at namunalari aslida maktab uchun yaratilgan ibtidoiy o‘quv qo‘llanmalari bo‘lgan, aniqrog‘i, ibtidoiy maktabda lug‘at darslik vazifasini o‘tagan⁸.

Mustaqil fan sifatida o‘quv leksikografiyasi xalqaro aloqalar kengayishi natijasida XX asrning ikkinchi yarmida chet tillarni o‘rganishga qiziqish bilan bog‘liq holda shakllandi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham lingvistik lug‘atchilikda hamda kompyuter lingvistikasida qator ishlar amalga oshirildi⁹. Xususan, B.Bahriddinova,

⁸ Бахридинова Б.Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари. Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – Б. 69

⁹ Alessandro Agostini, Timur Usmanov, Ulugbek Khamdamov, Nilufar Abdurakhmonova, and Mukhammadsaid Mamasaidov. 2021. UZWORDNET: A Lexical-Semantic Database for the Uzbek Language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference, –P. 8–19, University of South Africa (UNISA). Global Wordnet Association; Mengliev, D; Barakhnin, V; Abdurakhmonova, N. Development of Intellectual Web System for Morph Analyzing of Uzbek Words. Appl. Sci. 2021, 11, 9117. <https://doi.org/10.3390/app11199117>; Абдурахмонова Н., Хайдаров М. Ўзбек тилида WORDNET яратиш масалаларига доир // “O‘zbekistonda xorijiy tillar” elektron jurnali № 4 (27) / 2019; Абдурахмонова Н. Ўзбек тили электрон корпусининг компьютер моделлари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф – Тошкент. 2021; Бахридинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф – Самарқанд. 2020; Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022; Мирханова Г.Р. Ўзбек тилининг синоним сўзлар ўқув луғатини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Фарғона. 2022; Нормаматов С.Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жаҳид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фанлари доктори (DSc) ... дисс. автореф. –

Z.Rajabova, G.Mirxanova, N.Abduraxmonova, Sh.Gulyamova va boshqalarning tadqiqotlari o‘zbek tilida yangi avlod omonimlar o‘quv izohli lug‘atlarni yaratishning lingvistik xususiyatlari monografik aspektida o‘rganildi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Kompyuter leksikografiyasida lingvistik resurslarning o‘rganilishi*” deb nomlanib, unda lingvistik birliklar taraqqiyotida leksikografiya va uning yangi tarmoqlaridan biri hisoblangan kompyuter leksikografiyasida lingvistik resurslarni tartiblash va uni o‘zbek tilshunosligida yangi bosqichga olib chiqishning amaliy va nazariy asoslari o‘rganilgan (*tezaurus va ontologiya* haqida aniq dalillar bilan keltiriladi).

Inson hayoti, jamiyat, tillararo hamda madaniyatlararo muloqotda lug‘atlarning o‘rni juda katta. Shu sababli lug‘at va leksikografiyaga bo‘lgan qiziqish, talab va ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, turli xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar kuchayib, faollashib borayotgan bir davrda ushbu sohaga bo‘lgan e’tibor ortmoqda. Bu munosabatlarda lug‘atlar ko‘prik, vosita rolini o‘taydi. Dunyoning barcha mamlakatlarida leksikografiyaga e’tibor kuchayayotganligi kuzatilmoqda. Turli lug‘atlar tuzishning asosiy sabablaridan biri axborot texnologiyalari sohasining takomillashishidir.

Kompyuter yordamida lug‘atlar bilan ishlashning optimallasuvi natijasida kompyuter leksikografiyasi yo‘nalishi shakllandi. Kompyuter leksikografiyasi amaliy tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda lingvistik va dasturiy ta’minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash tamoyili asosida yaratilgan kompyuter lug‘atlari, ularni tuzish dasturlari, algoritmlari o‘rganiladi. Mazkur sohaning rivojlanishi natijasida turli nomlarda elektron lug‘atlar yaratilmoqda. Eng mashhur elektron lug‘atlar sirasiga CONTEXT, ABBY LINGVO, MULTITRAN, POLYGLOSSUM, MULTILEKS¹⁰ kabilar kiradi.

“Elektron lug‘at” tushunchasi tilshunoslik fanida so‘nggi o‘ttiz yil mobaynida paydo bo‘lgan termindir. “Kompyuter leksikografiyasi” termini esa nisbatan ilgari paydo bo‘lgan. Mazkur tushunchaning ilmiy talqini Y.N.Marchukning 1976-yilda nashrdan chiqqan “Hisoblash leksikografiyasi”, E.V.Vertelning 1984-yilda nashr qilingan “Mashina leksikografiyasi”, O.A.Kazakevichning 1985-yildagi “Avtomatlashtirilgan leksikografiya”, V.V.Markovkinning 1990-yilda yaratilgan “Kompyuter leksikografiyasi” nomli darslik va o‘quv qo‘llanmalarida bayon etilgan. Xususan, Y.N.Marchuk ushbu terminlarni “Kompyuter lingvistikasi” sarlavhasi ostida umumlashtirish zarurligi, tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal qilish zamonaviy dasturiy yo‘nalishlariga asoslangan kompyuterlar yordamida muhokama qilinishini ta’kidlaydi¹¹. Q.M.Mandrikova esa “hisoblash leksikografiyasi”, “hisoblash mashinasi” va “avtomatik leksikografiya”

Тошкент: 2019; Худжаева Р.М. Инглиз ва ўзбек тилларидаги генетик боғланмаган лексик омонимларнинг самарадорлиги ва уларнинг лексикографик талқини: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. –181 б; Мамедова М.А. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларини инглиз тили омонимларига ўқитишдаги компьютер технологиялари: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2017.

¹⁰ Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2011.

¹¹ Марчук Ю.Н. Основы компьютерной лингвистики. – М.: МГОУ, 2002.

terminlarining bir tushuncha ekanligini va ularning mohiyatida yagona vosita – kompyuter mavjudligini ta’kidlaydi. U “kompyuter leksikografiyasi” tilshunoslikning alohida yo‘nalishi ekanligiga katta urg‘u beradi. Leksikografiyani alohida soha sifatida ko‘rib chiqish lozim, degan xulosaga keladi. Ushbu fanning mazmuni har xil turdagi kompyuter lug‘atlarining nazariy va amaliy masalalari mavjudligini tan olib, ushbu muammo bilan bog‘liq barcha natijalarni nashr etishni nazarda tutadi¹².

Bizning fikrimizcha, bir xil hodisani ifodalovchi “hisoblash leksikografiyasi”, “mashina leksikografiyasi”, “elektron leksikografiya”, “avtomatik (avtomatlashtirilgan) leksikografiya” terminlarini muayyan termin – kompyuter leksikografiyasiga almashtirish orqali ulardagi xilma-xillikning oldini olish mumkin va uni kompyuter lingvistikasining bir tarmog‘i sifatida shu kontekstda o‘rganish o‘rinli hisoblanadi. Bu termin avvallari faol qo‘llanilgan hisoblash leksikografiyasi, mashina leksikografiyasi, avtomatlashtirilgan leksikografiya va statistik leksikografiya atamalarini ham o‘z ichiga oladi.

N.Abdurahmonova “Kompyuter lingvistikasi” darsligida an’anaviy va elektron lug‘atlarni quyidagicha farqlaydi: “An’anaviy lug‘atda u yoki bu so‘zlarning tuzilish kompozitsiyasi aks etgan izohlar qay holatda berilishi nazarda tutilsa, elektron (avtomatik, kompyuter) lug‘at yaratish tamoyillariga ko‘ra foydalanuvchilar uchun maxsus kompyuter formatida yoki muayyan tarkibiy qism dasturi sifatida berilgan dastur nazarda tutiladi (masalan, mashina tarjimasini). Shu bilan birga, foydalanuvchining undan qay tarzda foydalanishiga ko‘ra, elektron lug‘at hamda matnni qayta ishlovchi dastur uchun avtomatik lug‘at sifatida farqlanadi. Foydalanuvchi uchun mo‘ljallangan avtomatik lug‘atlarni erkin tarzda ishlatish mumkin”¹³.

Bizningcha, kompyuter lug‘atlari oddiy an’anaviy lug‘atlardan quyidagi afzalliklari bilan farqlanadi:

- lug‘atga kirish va undan ma’lum so‘rovlar asosida ma’lumot olish tartibining sodda va tezkorligi;
- bir vaqtning o‘zida bir nechta lug‘atlarga murojaat qilish, qisqa vaqt ichida so‘zning ma’nosini oydinlashtirish va umumiy xulosalar chiqarish mumkinligi (an’anaviy lug‘atlarda bu juda ko‘p vaqt hamda kuch talab qiluvchi jarayon hisoblanadi);
- istalgan tildagi so‘zni ajratib ko‘rsatish va boshqa lug‘atlar bilan solishtirish imkoniyatining mavjudligi. Masalan, 8 tilli tarjima lug‘ati har qanday tilga asoslanishi mumkin, ya’ni ko‘p tilli lug‘atlarda ifodalangan barcha tillarning bir xil huquqlarga va qidiruv imkoniyatlariga egaligi;
- oddiy lug‘atlar nashr etilgandan so‘ng so‘zlar soni va izohi qayta nashr etilgunga qadar o‘zgartirilishi mumkin emas. Kompyuter lug‘atlari ochiq mobil tizimlardir. Bunday lug‘atlarda yangi so‘zlarni ma’lumotlar bazasiga qo‘shish,

¹² Мандрикова Г.М. Учебное компьютерное лексикографирование в теоретическом и прикладном рассмотрении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1994.

¹³ Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B 148.

tuzatishlar kiritish va eskirgan soʻzlarni olib tashlash (yoki bu soʻzlarni alohida guruhlariga joylashtirish) mumkin.

“Elektron oʻquv lugʻatchiligining konseptologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobning uchinchi faslida maxsus qidiruv tizimiga asoslangan elektron lugʻat korpusi, korpusga asoslangan lugʻatlarning malumotlar bazasi hamda dasturiy taʼminotlarni shakllantirish, til oʻrganuvchilar qidiruv tizimidan foydalangan holda kerakli soʻzning umumiy maʼlumotlarini olish kabi imkoniyatlarning mavjudligi nazariy jihatdan oʻrganilganligi bayon qilinadi.

Kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimai, til texnologiyasi, tabiiy tilni qayta ishlash, sunʼiy intellekt texnologiyasi kabi terminlar amaliy tilshunoslikda tez-tez qoʻllanishi tilga zamonaviy yondashuvlar asosida nazariy qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa insoniyat tomonidan yaratilgan lingvistik resurs orqali oʻz tadrijiy takomiliga ega boʻlib ulgurdi. Endilikda lingvistik taʼminotning asosiy turlaridan biri sifatida elektron shakldagi korpuslar nazarda tutilmoqda. Korpus lingvistikasi matnlarni annotatsiyalash, yigʻish, tasniflash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi. Korpus tabiiy tilni tushunish jarayonini lingvistik jihatdan aniq va toʻgʻri koʻrsata olgani bois NLP – natural language processing sohasida uning oʻrni muhim ahamiyatga ega. Shu bois ilmiy manbalarda korpus lingvistikasi tabiiy tilni qayta ishlash sohasining (NLP) bir yoʻnalishi sifatida qayd etiladi¹⁴. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan kompyuter lingvistikasi va amaliy lingvistikaning muayyan sohasi sifatida eʼtirof etiladi.

Korpus texnologiyasiga asoslangan har xil turdagi lugʻatlarda mavjud maʼlumot bazasining maxsus qidiruv parametrlari leksik birlikning lugʻaviy maʼnosi va unga tegishli misollarni oʻqiy olish imkoniga ega boʻlishi kerak.

Foydalanuvchilar uchun lugʻat maqolasining tuzilishi, soʻz haqida ishonchli maʼlumot beruvchi uning tarkibiy qismlari, toʻplami alohida ahamiyatga ega. Lugʻat yozuvining tarkibiy qismlari va tuzilishi tasvirlangan lugʻat birliklarining obyektiv murakkabligini, leksikografik janrlarning oʻziga xosligini aks ettiradi, ularning umumiy obyekt leksik birliklarning ochiq toʻplamidir. Shunday qilib, lugʻatlar til va dunyo haqidagi bilimlarimizni tizimlashtiradi. Bu bilimlar lugʻat turi, lugʻat hajmi, leksikografik materialni taqdim etish usulida, lugʻat yozuvining tuzilishi va obyektlarida oʻz ifodasini topgan. Shundan kelib chiqib, maʼlumotlar massiviga kiritish uchun u yoki bu leksikografik manbani tanlash mezonlaridan kamida bittasi lugʻat turi boʻlishi mumkin, degan xulosaga keldik. Boshqa tomondan, bir turdagi lugʻatlarning har biri faqat oʻzigagina xos xususiyatlarga ega. Masalan, nomlash tizimi, lugʻat hajmi, lugʻat tarkibining tuzilishi va lugʻatda soʻz maʼnolarini izohlash yoʻllari, lugʻatga kirgan leksik birliklarning xronologik qatlami va boshqalar. Toʻliq tahlil bir nechta leksikografik manbalarga, jumladan, bir xil turdagi lugʻatlarga murojaat qilishni oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, bir xil leksik birlik haqida bir xil turdagi maʼlumotlar boʻlgan har xil turdagi

¹⁴ Mohamed Zakaria Kurdi. *Natural Language Processing and Computational Linguistics: Speech, Morphology and Syntax*. — Great Britain, USA: Wiley-ISTE 2016. – B. 300.

lugʻatlarda bu maʼlumotlarning mazmuni oʻzaro farqlanishi mumkin: kengroq yoki torroq boʻlishi yoki sifat jihatidan farq qilishi mumkin.

Dissertatsiyaning “*Mobil lugʻatlarni oʻrganishning amaliy masalalari*” deb nomlangan ikkinchi bobida til pedagogikasida mobil lugʻatlardan foydalanishning amaliy masalalari sifatida kompyuter yoki mobil qurilmalar yordamida tabiiy tillarni oʻrganish uchun, birinchi navbatda, lugʻat, grammatika va suhbatlar kitobini qoʻshish oʻrinli hisoblanib, ushbu jarayonni tashkillash lingvistlar va dasturchilar tomonidan amalga oshirilishi lugʻatning elektron versiyasini qoʻllash, grammatik qoidalar va topshiriqlarni ishlab chiqish, axborot-qidiruv tizimlari, dialog tizimlari, ekspert tizimlari, lugʻatlarning talaffuzi, soʻrovlar tizimini tayyorlash, lingvistik taʼminot va dasturiy taʼminot muammosini hal qilish zarurligi bayon qilinadi.

Ikkinchi bobning birinchi fasli “*Mobil lugʻatlardan foydalanishning amaliy jihatlari*” deb nomlanib, bu faslda tillarni kompyuter va mobil qurilmalar orqali oʻrgatish tizimining joriy qilinishi til oʻqitish jarayoniga ijobiy taʼsir etishi tizimli oʻrganilgan.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, taʼlim uchun yaratilgan misli koʻrilmagan imkoniyatlar tufayli taʼlim va oʻqitish muhiti juda tez oʻzgarib bormoqda. Taxminan yarim asr davomida kompyuterlardan oʻqitish vositasi, til oʻrgatishning yangi tajribasi sifatida taʼlim jarayoniga integratsiyalanishi va mobil qurilmalarning tez rivojlanishi natijasida amaliyotga keng tatbiq etildi.

Mobil taʼlim – bu mobil qurilmalar yordamida amalga oshiriladigan taʼlim shakli¹⁵ boʻlib, istalgan joyda va istalgan vaqtda taʼlim olishni taʼminlash demakdir. Dastlab, mobil taʼlimda mobil texnologiyalar va qurilmalarning roliga eʼtibor qaratilgan boʻlsa, soʻnggi yillarda mobil taʼlim foydalanuvchining harakatchanligi va sinfdan tashqari mustaqil taʼlimda amalga oshiriladigan norasmiy taʼlim shakli bilan tavsiflanadi¹⁶. Ushbu holat portativ (koʻchuvchan) media pleyer qurilmalari, planshetlar va mobil telefonlar kabi har qanday palmtop qurilmalari mobil oʻrganishga alohida hissa qoʻshgani bilan belgilanadi.

Kompyuter lingvistikasida olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mobil qurilmalar orqali til oʻrganish MALL deb nomlanib, bu jarayon portativ qurilmalar yordamida amalga oshiriladigan til oʻrganishning har qanday turi hisoblanadi. Mobil qurilmalar umumiy maʼnoda til oʻrganish, koʻnikmalarni rivojlantirish uchun samarali va ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

MALL boʻyicha tadqiqotlar, asosan, oʻqituvchilar tomonidan boshqariladigan mobil taʼlim va oʻquvchilarning mobil ilovalardan foydalanishiga qaratilgan boʻlib, adabiyotlarda mobil ilovalarning til oʻrganishdagi oʻrni tabiiy deb qabul

¹⁵ Kukulska-Hulme A., Shield L. An overview of mobile assisted language learning: From content delivery to supported collaboration and interaction. *ReCALL*, 20, 2008. – P. 271

¹⁶ Sharples M. Big issues in mobile learning. Report of a workshop by the Kaleidoscope Network of Excellence Mobile Learning Initiative. 2006. – P. 28

qilingan. Til o'rganuvchilar "mavjudligi, qulayligi va arzonligi" tufayli ushbu ilovalardan tez-tez foydalanadilar¹⁷.

"Elektron lug'atlarga xos ilmiy paradigma" deb nomlangan ikkinchi bobning ikkinchi faslida elektron lug'atlarning yaratilishi va uning kompyuter lingvistikasi, xususan, kompyuter leksikografiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Kompyuter lug'atlari ilmiy markazlar tomonidan turli maqsadlarda tuziladi. Shuning uchun ham bunday lug'atlar axborot texnologiyalari tizimida turli parametrlarga ko'ra tasniflanadi. Ulardan ba'zilari faqat internet tizimlarida keng foydalanish uchun mo'ljallangan va qog'oz (kitob) shakliga ega emas. Ba'zi kompyuter lug'atlarining qog'oz variantlari mavjud. To'g'rirog'i, ba'zan ilmiy jamoatchilik tomonidan ma'qullangan va kundalik hayotda foydalaniladigan lug'atlarning elektron versiyalari yaratiladi. Ushbu versiyalar ham elektron, ham qog'oz lug'atlarning ayrim xususiyatlarini aks ettiradi. Lug'atning qog'oz ko'rinishidagi elektron turlari yaratilib, bu ulardan kengroq foydalanish imkonini beradi. Bu lug'atlarning qisman elektron va to'liq elektron shakllari mavjud. Natijada mavjud kompyuter lug'atlarini keng ma'noda quyidagicha tasniflash mumkin bo'ladi:

a) mashina tarjimasi va sun'iy intellekt tizimlarida qo'llanuvchi lug'atlar;

b) terminologik banklar ma'lumotlar bazasini tashkil etuvchi lug'atlar va tarjimonlarga yordam berish maqsadida yaratilgan "poliglot" tipidagi lug'atlar;

c) turli bibliografik va ensiklopedik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron fayllar;

d) lug'atlarning qog'oz (kitob) ko'rinishida anchadan beri mavjud bo'lgan va foydalanish doirasi keng bo'lgan elektron versiyalari.

Ingliz tilidagi eng keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan "Dictionary.com", "Dictionaries", "Your Dictionary" "Hypertext Dictionary", "WordNet", "Intralinguas English Language Dictionary" va "Onelook Dictionaries" elektron kompyuter lug'atlari misol bo'ladi.

"Your Dictionary" ingliz tili lug'atlaridan maxsus "Onlayn lug'at" va "Onlayn tezaurus" lug'atlar bir vaqtning o'zida har qanday so'z kataloglari "Hypertext Dictionary", "WordNet" va "Intralinguas English Language Dictionary" kabi elektron resurslardan ham izlash, ularning fonetik xususiyatlarini o'rganish hamda ma'nosini oydinlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu elektron lug'at orqali ingliz tilini interaktiv metodlar asosida o'rganish mumkin.

"WordNet" lug'atidan so'zning u yoki bu gap bo'lagiga mansubligi, shu so'zning sinonim, antonim va omonimlari haqida ma'lumot olish mumkin. Katalogda "Thesaurus and Quotes", Dictionary of Difficult Words", "American Heritage Dictionary", "Database Query", "Cambridge Dictionaries Online", "Online Dictionary", "The Jargon Dictionary", "Ono-look Dictionary", "Grandiloquent Dictionary" va shu kabi lug'atlar joylashtirilgan. Ushbu

¹⁷ Steel C. Fitting learning into life: Language students' perspectives on benefits of using mobile apps. Proceedings of ascilite 2012, Future Challenges Sustainable Future. Wellington, New Zealand. Available at: http://www.ascilite.org.au/conferences/wellington12/2012/images/custom/steel%2c_caroline_-_fitting_learning.pdf.

lug‘atlarning har biri ko‘p tilli va maxsus soha (domen) lug‘atlariga kirish huquqiga ega. Maxsus soha lug‘atlari 86 ta faoliyat sohasini qamrab olgan. Bunga biznes, moliya, tibbiyot, kompyuter texnologiyalari, sport va boshqa faoliyat turlari misol bo‘la oladi.

